

**SAMARQAND AGROINNOVATSIYALAR VA TADQIQOTLAR
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.05/28.08.2024.Qx.182.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI**

DO‘SOV XAYRULLA JUMANIYOZOVICH

**TAKRORIY EKIN SIFATIDA EKILGAN SHOLINING O‘SISHI,
RIVOJLANISHI VA HOSILDORLIGIGA ILDIZDAN TASHQARI
OZIQLANTIRISHNING SAMARADORLIGI
(Xorazm viloyati sharoitida)**

06.01.08 – O‘simlikshunoslik

**Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

**Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по сельскохозяйственным наукам**

**Sontents of the dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on agricultural sciences**

Do‘sov Xayrulla Jumaniyozovich

Takroriy ekin sifatida ekilgan sholining o‘sishi, rivojlanishi va hosildorligiga ildizdan tashqari oziqlantirishning samaradorligi (Xorazm viloyati sharoitida) 3

Дусов Хайрулла Жуманиёзович

Эффективность внекорневого питания на рост, развитие и урожайность риса в качестве повторной культуры (в условиях Хорезмского областа) 21

Dusov Khayrulla Jumaniyozovich

Efficiency of foliar fertilization on the growth, development, and productivity of rice cultivated as a secondary crop (under the conditions of the Khorezm region) 41

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 45

**SAMARQAND AGROINNOVATSIYALAR VA TADQIQOTLAR
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.05/28.08.2024.Qx.182.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI**

DO‘SOV XAYRULLA JUMANIYOZOVICH

**TAKRORIY EKIN SIFATIDA EKILGAN SHOLINING O‘SISHI,
RIVOJLANISHI VA HOSILDORLIGIGA ILDIZDAN TASHQARI
OZIQLANTIRISHNING SAMARADORLIGI
(Xorazm viloyati sharoitida)**

06.01.08 – O‘simlikshunoslik

**Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PhD/Qx1695. raqam bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.samaguni.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Tajiyev Zokirjon Rajabovich

qishloq xo'jaligi fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Bobomirzayev Pirnazar Xursanovich

qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor

Qalandarov Baxtiyor Iskandarovich

qishloq xo'jaligi fanlari falsafa doktori,
katta ilmiy xodim

Yetakchi tashkilot

O'simliklar genetik resurslari ilmiy-tadqiqot instituti

Dissertatsiya himoyasi Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti huzuridagi PhD.05/28.08.2024.Qx.182.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «17» 12 soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 141001, Samarqand viloyati, Oqdaryo tumani, Dahbet qo'rg'oni, A.Temur ko'chasi 7-uy. SamATI Tel: (+99866) 492-81-16; faks: (+99866) 492-81-16; e-mail: info@samaguni.uz; Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti bosh binosi, 2-qavat, kichik majlislar zali)

Dissertatsiya bilan Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№105 -raqami bilan ro'yxatga olingan). (141001, Samarqand viloyati, Oqdaryo tumani, Dahbet qo'rg'oni, A.Temur ko'chasi 7-uy. SamATI Tel: (+99866) 492-81-16).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «5» 12 kuni tarqatildi.
(2025-yil «02» 12 dagi 8 -raqamli reyestr bayonnomasi).


Sh.X.Rizayev
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
raisi, q.x.f.d., professor
I.X.Amanturdiyev
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, q.x.f.f.d., dotsent
S.T.Sanayev
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi,
q.x.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Hozirgi kunda “sholi dunyoda 115 dan ortiq davlatda 165 mln.ga maydonda yetishtirilib, o‘rtacha hosildorligi 46,5 s/ga ni tashkil etmoqda”¹. Sholi ekiladigan maydonning 90 % i Osiyo mamlakatlariga, Xitoy (28,9 mln/ga), Hindiston (47,8 mln/ga), Bangladesh (11,6 mln/ga), Indoneziya (10,2 mln/ga), Vyetnam (7,1 mln/ga), Tailand (11,1 mln/ga), Myanma 6,4 (mln/ga), Filippin (4,8 mln/ga) davlatlariga to‘g‘ri keladi². Sholini turli mintaqalarda yetishtirishda tuproq sho‘rlanishini oldini olish va unumdorligini oshirish, serhosil navlarni yaratish hamda resurstejovchi texnologiyalarni ilmiy asosda qo‘llash hisobiga yuqori samaradorlikka erishilmoqda.

Dunyoda sholi yetishtiradigan davlatlarda yuqori hosilli navlarni yaratish, asosiy va takroriy ekinda ko‘chatidan yetishtirish, ko‘chatidan yetishtirishda maqbul ekish muddati, sxemasi va me‘yorlari, suvtejovchi texnologiyalarni qo‘llash hisobiga don hosildorligini oshirishga alohida e‘tibor berilmoqda. Shuningdek, qurg‘oqchilik va suv tanqisligi sharoitida hamda mineral o‘g‘itlardan samarali foydalanishda mikro va makro elementlarga boy bo‘lgan o‘g‘itlar bilan ildizdan tashqari oziqlantirishning ilmiy asoslangan texnologiyasini ishlab chiqish don yetishtirishda dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Bu borada, respublikamizda tuproq meliorativ holati noqulay bo‘lgan sho‘rlangan yerlarida sholi yetishtirishda tuproq ekologiyasi va unumdorligini yaxshilashda asosiy o‘g‘itlar (N, P, K)dan foydalanish samaradorligini oshirishda o‘simliklar o‘zlashtiriladigan makro va mikro o‘g‘itlarni ildizdan tashqari oziqlantirish agrotexnologiyalarini ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borish muhim hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 2 fevraldagi “Sholi yetishtirishni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4973-son qarorida “Respublikaning sholi yetishtiriladigan hududlarida sholini katta maydonlarda ko‘chatlab ekish hamda mineral o‘g‘it, suv va boshqa resurslarni tejaydigan texnologiyalarni keng joriy qilish” ustuvor vazifa qilib belgilangan³.

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublika Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrdagi PF-5853-son “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni hamda 2024-yil 15-avgustdagi “Sholi yetishtiruvchilar faoliyatini qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-290-son qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-dekabrdagi 986-son “Sholichilikni barqaror rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqotlari muayyan darajada xizmat qiladi.

¹ <http://www.activestudy.info/soleustoychivost-selskoxozyaestvennix-rasteny>

² <https://www.fao.org/faostat/en/#data/QCL>

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 2 fevraldagi “Sholi yetishtirishni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4973-son qarori

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertasiya tadqiqoti Respublika Fan va texnologiyalari rivojlanishining V. “Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Respublikamizda sholini asosiy va takroriy ekinda turli tuproq-iqlim sharoitlarida yetishtirish agrotexnologiyalari bo‘yicha Yu.B.Saimnazarov, M.A.Sattorov, R.Sh.Tellyayev, M.A.Ergashev, Q.K.O‘razmetov, N.Djumanov, X.Jo‘rayeva, B.G.Qodirov, B.I.Qalandarov, B.K.Ravshanov, D.R.Saitxanovlar, xorijda turli tarkibli makro va mikro o‘g‘itlar bilan ildizdan tashqari oziqlantirish bo‘yicha A.X.Sheudjen, Ya.B.Petrik, A.D.Poroxnya, G.G.Fanyan, M.I.Xlyupina, X.D.Xurum, N.V.Chernisheva, A.Daneshtalab Lahijani, R.Dineshkumar, M.Huong, J.H.Lee, A.U.Khan va boshqa olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilib ijobiy natijalar olingan.

Lekin, Xorazm viloyatining o‘rtacha sho‘rlangan o‘tloqi allyuvial tuproqlari sharoitida takroriy ekinda sholini ko‘chat usulida parvarishlashda ildizdan tashqari oziqlantirishda turli tarkibli o‘shishni boshqaruvchi preparatlar samaradorligini o‘rganish bo‘yicha yetarlicha ilmiy izlanishlar olib borilmagan.

Dissertasiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertasiya tadqiqoti Urganch davlat universiteti ilmiy-tadqiqot rejasining 2021-yil 18-yanvardagi № 2-sonli yig‘ilish bayonnomasi bilan tasdiqlangan “Xorazm viloyati sharoitida takroriy ekin sifatida sholidan yuqori va sifatli don hosili yetishtirishning samarali agrotexnologiyasini ishlab chiqish” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari doirasida bajarilgan (2021-2024 yy.).

Tadqiqotning maqsadi. Xorazm viloyatining o‘rtacha sho‘rlangan o‘tloqi-allyuvial tuproqlari sharoitida sholini takroriy ekinda ko‘chat usulida yetishtirishda turli tarkibli o‘simliklarni o‘shishini boshqaruvchi makro va mikro o‘g‘itlarni ildizdan tashqari qo‘llashning samaradorligini aniqlash hamda ishlab chiqarishga tavsiyalar berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari.

Xorazm viloyatining o‘rtacha sho‘rlangan o‘tloqi-allyuvial tuproqlari sharoitida sholini takroriy ekinda ko‘chat usulida yetishtirishda turli tarkibli o‘simliklarni o‘shishini boshqaruvchi Avangard Start, Edagum SM, Zerebro Agro preparatlarini ekish oldi urug‘larga ishlov berishning laboratoriya va dala unuvchanligiga ta‘sirini aniqlash;

sholini ko‘chatidan parvarishlashda ildizdan tashqari oziqlantirishning ko‘chat tutuvchanligi va o‘suv davri oxiridagi o‘simliklarning saqlanib qolishiga ta‘sirini o‘rganish;

takroriy ekinda ildizdan tashqari oziqlantirishning sholini rivojlanish davrlari davomiyligi, o‘simlik bo‘yi, umumiy va mahsuldor poyalar soni hamda mahsuldor tuplanish ko‘rsatkichlariga ta‘sirini aniqlash;

ildizdan tashqari oziqlantirishning sholini don hosili va quruq modda to‘plashi hamda don hosili va guruch chiqishi o‘rtasidagi korrelyasion bog‘liqlikni o‘rganish;

sholini ildizdan tashqari oziqlantirishning o'simlikdagi barglarning shakllanishi (barglar soni, uzunligi va eni.), barg yuzasi va quruq modda to'plash dinamikasiga ta'sirini aniqlash;

sholini takroriy ekinda hosil strukturasi elementlari (ro'vak uzunligi, ro'vakdagi don soni va uning og'irligi, 1000 dona don og'irligi), don va poxol hosildorligi hamda donning texnologik ko'rsatkichlariga ildizdan tashqari oziqlantirishning ta'sirini aniqlash;

takroriy ekinda sholini ko'chatidan parvarishlashda ildizdan tashqari oziqlantirishning iqtisodiy samaradorligini tahlil etish hamda maqbul variantlarni ishlab chiqarishga tavsiyalar berish.

Tadqiqotning obyekti sifatida o'rtacha sho'rlangan o'tloqi – allyuvial tuproqlar, sholining “Iskandar” navi va o'simliklarni o'sishini boshqaruvchi Avangard Start e.k., Edagum SM, Zerebro Agro s.e. preparatlari olingan.

Tadqiqotning predmeti bo'lib, qo'llanilgan preparatlarning sholining laboratoriya va dala unuvchanligi, o'sishi, rivojlanishi, o'simlik barg yuzasi, quruq modda to'plashi, hosil strukturasi elementlari, don va poxol hosildorligi, donning texnologik ko'rsatkichlariga ta'sirini o'rganish hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dala va laboratoriya tahlillari, fenologik kuzatuvlar hamda biometrik o'lchashlar “Dala tajribalarini o'tkazish uslublari”, “Agronomiyada ilmiy tadqiqot uslublari”, “Qishloq xo'jalik ekinlarini Davlat nav sinash nazoratidan o'tkazish qo'llanmasi”, “Методика полевого опыта”, “Методы агрохимических, агрофизических и микробиологических исследований в поливных хлопковых районах” uslubiy qo'llanmalari asosida, ma'lumotlarning matematik-statistik tahlili Microsoft Excel dasturi yordamida B.A.Dospexov uslubi asosida bajarilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor Xorazm viloyatining o'rtacha sho'rlangan o'tloqi-allyuvial tuproqlari sharoitida takroriy ekinda ildizdan tashqari oziqlantirishning sholini “Iskandar” navining o'sishi, rivojlanishi uchun qulay bo'lgan, yuqori don hosili beruvchi turli tarkibli o'simliklarni o'sishini boshqaruvchi (Avangard Start va Edagum SM) preparatlarni qo'llash texnologiyasi ishlab chiqilgan;

sholini ekishdan oldin urug'lariga Avangard Start (1,0 l/t) va Edagum SM (400 ml/t) preparatlari bilan ishlov berish, laboratoriya unuvchanligini 2,7-3,8 %, dala unuvchanligini 1,6-2,9 % ga, ko'chat tutuvchanligini 2,5-3,1 %, o'suv davrida 2 marta tuplanish va naychalash davrida bargdan oziqlantirish (Avangard Start 1,0 l/t+1,0+2,0 l/ga va Edagum SM 400 ml/t+400+450 ml/ga) amal davri oxirida 5,4-6,3 % ga ko'p miqdorda o'simliklarni saqlanib qolishi aniqlangan;

sholini o'sishi, rivojlanishi va don hosildorligiga o'suv davrida 1 marta naychalash davrida (Avangard Start 1,0 l/t+2,0 l/ga, Edagum SM 400 ml/t+450 ml/ga, Zerebro Agro 100 ml/t+200 ml/ga) bargdan oziqlantirilganda, tuplanish davrida 1 marta (Avangard Start 1,0 l/t+1,0 l/ga, Edagum SM 400 ml/t+400 ml/ga, Zerebro Agro 100 ml/t+200 ml/ga) bargdan oziqlantirilganga nisbatan past ko'rsatkichlarni ta'minlashi ilmiy asoslangan. Shuningdek, o'suv davrida 2 marta ketma-ket tuplanish+naychalash davrida Avangard Start 1,0 l/t+1,0+2,0 l/ga va Edagum SM 400 ml/t+400+450 ml/ga me'yori va tartiblarda qo'llash o'simlik bo'yi

7,6-9,3 sm, barg satxi 50,2-52,0 sm² ga, 1m²dagi mahsuldor poyalar soni 36,2-41,2 donaga, don hosilini 6,8-8,9 s/ga ko‘p va yuqori bo‘lishi isbotlangan;

sholini takroriy ekinda ekish oldi urug‘i+tuplanish+naychalash davrlarida Avangard Start 1,0 l/t+1,0+2,0 l/ga va Edagum SM 400 ml/t+400+450 ml/ga me‘yor va tartiblarda ildizdan tashqari oziqlantirish o‘simlikni o‘sishi, rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratib, don hosilini 81,2-79,1 s/ga, sof foyda 24120000; 23237000 so‘m/ga, rentabellik darajasi 146,3; 142,4 % yuqori bo‘lishi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

Xorazm viloyatining o‘rtacha sho‘rlangan o‘tloqi-allyuvial tuproqlari sharoitida sholini takroriy ekinda ko‘chat usulida yetishtirishda o‘sishi, rivojlanishi uchun qulay bo‘lgan, yuqori don hosili beruvchi ildizdan tashqari oziqlantirish texnologiyasi ishlab chiqilgan.

sholini takroriy ekinda ekish oldi urug‘i+tuplanish+naychalash davrlarida Avangard Start 1,0 l/t+1,0+2,0 l/ga va Edagum SM 400 ml/t+400+450 ml/ga me‘yor va tartiblarda ildizdan tashqari oziqlantirish amal davri oxirida saqlanib qolgan o‘simliklar miqdori (92,3; 91,4 m²/dona), mahsuldor poyalar soni (302,0; 297,2 m²/dona), hosil elementlarini (ro‘vak uzunligi 21,3; 21,1 sm, ro‘vakdagi donlar soni 118,2; 116,8 dona, ro‘vakdagi don og‘irligi 3,77; 3,71 g., 1000 dona don massasi 31,9; 31,8 g.) va guruch chiqishi (2,0-2,2 %) yuqori bo‘lishini ta‘minlagan.

sholini tuplanish davrida 1 marta bargdan oziqlantirish, tuplanish davrida oziqlantirilmay, naychalash davrida 1 marta bargdan oziqlantirilganga nisbatan yuqori don hosil berishi, shuningdek, ildizdan tashqari oziqlantirishda ekish oldi urug‘larga ishlov berib, o‘suv davrida 2 marta (tuplanish+naychalash) Avangard Start 1,0 l/t+1,0+2,0 l/ga va Edagum SM 400 ml/t+400+450 ml/ga me‘yor va tartiblarda qo‘llash don hosildorligi (81,2; 79,1 s/ga) va iqtisodiy samaradorlikni eng yuqori (rentabellik darajasi 146,3; 142,4 %) bo‘lishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dala va laboratoriya tajriba tahlillari, fenologik kuzatuvlar va biometrik o‘lchashlar umumqabul qilingan uslublarda o‘tkazilib, olingan ma‘lumotlar matematik-statistik ishlov berilganligi, tajribalar har yili mutaxassislar tomonidan aprobat siyadan o‘tkazilib, ijobiy baholanganligi, tadqiqotlarda olingan natijalar ishlab chiqarishda isbotlanganligi, olingan natijalar respublika va xalqaro darajadagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama etilganligi, dissertatsiya natijalari Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan e‘tirof etilgan ilmiy nashrlarda chop etilganligi natijalarning ishonchliligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Xorazm viloyatining o‘rtacha sho‘rlangan o‘tloqi-allyuvial tuproqlari sharoitida takroriy ekinda sholini ko‘chatidan parvarishlab, yuqori don hosili yetishtirishda ildizdan tashqari oziqlantirish texnologiyasi ishlab chiqilgan. Sholini “Iskandar” navi urug‘lari unuvchanligi, ko‘chat tutuvchanligi, amal davri oxirida saqlanib qolgan o‘simliklar, rivojlanish davrlari, umumiy va mahsuldor poyalar, barg yuzasi, quruq modda to‘plashi, hosil elementlari va don hosildorligining ildizdan tashqari oziqlantirishda o‘sishni boshqaruvchi preparatlarni qo‘llash muddati va me‘yorlariga bog‘liqligi ilmiy asoslangan.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati – Xorazm viloyatining o‘rtacha sho‘rlangan o‘tloqi-allyuvial tuproqlari sharoitida takroriy ekinda sholini ko‘chatidan parvarishlashda ildizdan tashqari oziqlantirishning yuqori don hosili beruvchi agrotexnikasi ishlab chiqilgan. Ushbu agrotexnologiya Xorazm viloyati sharoitida sholi yetishtiruvchi fermer xo‘jaliklariga joriy etilishi orqali yuqori don hosili va iqtisodiy samaradorlikni oshganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Xorazm viloyatining o‘rtacha sho‘rlangan o‘tloqi allyuvial tuproqlari sharoitida sholini takroriy ekinda ko‘chatidan parvarishlashda ildizdan tashqari oziqlantirishning o‘sishi, rivojlanishi va don hosildorligiga ta’siri bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqot natijalari asosida:

Sholini takroriy ekinda ko‘chatidan parvarishlashda ildizdan tashqari oziqlantirish bo‘yicha “Sholini takroriy ekin sifatida ko‘chatidan yetishtirishda ildizdan tashqari oziqlantirish bo‘yicha tavsiyanoma” ishlab chiqilgan va tasdiqlangan (Qishloq xo‘jaligi vazirligi Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2025-yil 15-oktabrdagi 05/05-04-652-son ma‘lumotnomasi). Ushbu tavsiyanoma sholi yetishtiriladigan fermer xo‘jalik va klasterlarida takroriy ekinda ko‘chatidan sholi yetishtirishda qo‘llanma sifatida keng foydalanilmoqda;

Sholini takroriy ekinda ko‘chat usulida yetishtirishda mineral o‘g‘itlar $N_{150}P_{105}K_{105}$ kg/ga me‘yorida o‘g‘itlash tizimida o‘simliklarni o‘sishini boshqaruvchi preparatlardan Avangard Start 1,0 l/t+1,0 +2,0 l/ga va Edagum SM 400 ml/t+400+450 ml/ga me‘yorlarida ekish oldi urug‘lar+o‘suv davrida 2 marta tuplanish+naychalash davrlarida ildizdan tashqari oziqlantirish texnologiyasi viloyatning Urganch (47,3 ga) va Bog‘ot (55,1 ga) tumanlarida, jami 102,4 gektar maydonda joriy etilgan (Qishloq xo‘jaligi vazirligi Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2025-yil 15-oktabrdagi 05/05-04-652-son ma‘lumotnomasi). Natijada, ildizdan tashqari oziqlantirish o‘tkazilmagan $N_{150}P_{105}K_{105}$ kg/ga me‘yorida qo‘llanilganga nisbatan sholi urug‘lari dala unuvchanligini 2,2-2,7 %, ko‘chat tutuvchanligini 2,7-2,9 %, o‘suv davrini oxirida o‘simliklarni 5,7-6,3 % ga ko‘p saqlanib qolishiga erishilgan;

O‘rtacha sho‘rlangan o‘tloqi-allyuvial tuproqlar sharoitida sholini takroriy ekinda ko‘chat usulida parvarishlab, ildizdan tashqari oziqlantirishda preparatlardan Avangard Start preparati 1,0 l/t+1,0+2,0 l/ga va Edagum SM 400 ml/t+400+450 ml/ga me‘yor va tartiblarda qo‘llash texnologiyasi viloyatning Urganch va Bog‘ot tumanlarida, jami 102,4 gektar maydonda joriy etilgan (Qishloq xo‘jaligi vazirligi Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2025-yil 15-oktabrdagi 05/05-04-652-son ma‘lumotnomasi). Buning natijasida, ildizdan tashqari oziqlantirishda Avangard Start preparati 1,0 l/t+1,0 +2,0 l/ga va Edagum SM preparati 400 ml/t+400+450 ml/ga me‘yorlarida ekish oldi urug‘i+o‘suv davrida tuplanish+naychalash tizimida oziqlantirilganda tegishlicha qo‘shimcha don hosili gektaridan 6,0-8,1 va 5,6-6,5 sentner, rentabellik darajasi 124,3-138,2 va 121,0-135,9 % ga yuqori bo‘lishini ta‘minlagan.

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi. Tadqiqot natijalari har yili Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetining maxsus komissiyasi tomonidan aprobasiyadan o‘tkazilib, ijobiy baholangan. Tadqiqotlarning asosiy

ilmiy natijalari bo'yicha 2 ta respublika va 2 ta xalqaro ilmiy anjumanlarida ma'ruzalar qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 9 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan, 3 tasi mahalliy va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya ishining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifasi hamda obykti va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, olingan natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, ishlab chiqarishga joriy etilganligi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Sholini o'g'itlash va ildizdan tashqari oziqlantirishning o'simliklar o'sishi, rivojlanishi va don hosildorligiga ta'siri bo'yicha ilmiy tadqiqotlar sharhi”** deb nomlangan birinchi bobida sholi yetishtirishning hozirgi kundagi holati va uni parvarishlashda mineral o'g'itlar hamda ildizdan tashqari oziqlantirishning o'sishi, rivojlanishi va don hosildorligiga ta'siri bo'yicha respublikamiz va xorijda o'tkazilgan ilmiy tadqiqotlar tahlili keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot o'tkazish joyi, tuproq-iqlim sharoitlari va qo'llanilgan uslublar”** deb nomlagan ikkinchi bobida tajriba o'tkazilgan Xorazm viloyatining tuproq-iqlim sharoitlari, tadqiqot o'tkazish uslublari, sholini takroriy ekinda ko'chatidan yetishtirishda ildizdan tashqari oziqlantirish bo'yicha o'tkazilgan agrotexnologik tadbirlar keltirilgan.

Dala tajribalari o'tkazilgan (2021-2023 yy.) Xorazm viloyatining Urganch tumanida joylashgan Urganch davlat universiteti o'quv tajriba xo'jaligi tuproqlari o'rtacha sho'rlangan, o'tloqi-allyuvial tuproqlar bo'lib, sizot suvlari 1,0-2,5 m.da joylashgan. Tuproqning haydalma 0-30 sm qatlamida gumus miqdori 0,970 %, 30-50 sm.da 0,810 %, harakatchan shakldagi azot (16,2 mg/kg), fosfor (21,4 mg/kg) va kaliy (197 mg/kg) bilan kam ta'minlangan. Tuproq muhiti (pH) 7,6-7,7 ishqoriy hisoblanadi.

Xorazm viloyati respublikaning shimoliy mintaqasida joylashganligi sababli havo harorati janubiy va markaziy mintaqalarga nisbatan o'rtacha 5-8°C past bo'ladi. Yillik o'rtacha harorat +12,0°C, eng past harorat yanvar oyida -5,0°C, yuqori harorat iyulda +30,0°C ni tashkil etadi. Viloyatda yiliga o'rtacha 80-100 mm yog'ingarchilik (asosan bahor va kuzda) tushadi. Vegetatsiya davri 200-210 kun tashkil etib, bu Respublikada eng qisqa davr hisoblanadi.

Dala tajribalari 13 ta variantda, 3 takrorlikda, 3 yarusda, bitta variant eni 3,0 m, uzunligi 25 m, 1 ta variant maydoni 75 m², 1 ta takrorlik 975 m², tajribaning umumiy maydoni 2925 m² ($\approx 3000 \text{ m}^2 = 0,30 \text{ ga}$) tashkil etgan.

Dissertatsiyaning **“Sholini takroriy ekinda ko‘chatidan parvarishlashda ildizdan tashqari oziqlantirishning o‘shishi, rivojlanishi va don hosili hamda uning texnologik ko‘rsatkichlariga ta‘siri”** deb nomlangan uchinchi bobida sholi urug‘larini laboratoriya va dala unuvchanligi, ko‘chat tutuvchanligi va amal davri oxiridagi o‘simliklar soni, o‘shishi, rivojlanishi, o‘simlik barg yuzasi, quruq modda to‘plashi, hosil elementlarini shakllanishi va don hamda pichan hosildorligi bo‘yicha ma‘lumotlar berilgan. Ilmiy tadqiqotlarda sholining “Iskandar” navi o‘rganilib, har yili 1 reproduksiyali urug‘lar ekilib, 2 xil – suvli va tuproq muhitida 100 donadan urug olinib, 4 ta variantda urug‘larni ekish oldi o‘shishni boshqaruvchi preparatlar Avangard Start-1,0 l/t, Edagum SM-400 ml/t, Zerebra Agro-100 ml/t me‘yorlarida ishlov berilib, termostatda $+25 \pm 2^\circ\text{C}$ haroratda laboratoriya sharoitida unuvchanligi o‘rganilgan. Suvli muhitda preparatlar bilan ishlov berilmagan nazorat variantida urug‘larning unuvchanligi 94,3 %, Avangard Start (1,0 l/t) bilan ishlov berilganda eng yuqori ko‘rsatkichni 98,1 % bo‘lib, nazoratga nisbatan 3,8 % yuqori bo‘lgan. Edagum SM (400 ml/t) preparati bilan ishlov berilganda 97,2 %, nazoratga nisbatan 2,9 %, Zerebra Agro (100 ml/t) qo‘llanilganda 96,5 % yoki nazoratga nisbatan 2,2 % yuqori unuvchanlikni ta‘minlagan.

Laboratoriya sharoitida tuproqli muhitda urug‘larning unuvchanligida suvli muhitga nisbatan keskin past ko‘rsatkichlar qayd etilib, urug‘lar preparatlar bilan ishlov berilmagan nazorat variantda 57,9 % ni, Avangard Start preparati ishlov berilganda 61,1 % gacha oshib, nazoratga nisbatan 3,2 % ga, Edagum SM bilan ishlov berilganda 60,6 %, nazoratga nisbatan 2,7 %, Zerebra Agro qo‘llanilganda 59,7 % bo‘lib, nazorat variantga nisbatan 1,8 % yuqori bo‘lganligi aniqlangan.

Tadqiqotlarda sholini “Iskandar” navini takroriy ekinda ko‘chatidan parvarishlashda ko‘chat tayyorlash uchun dala tajriba dalasi yaqinida ko‘chatxona uchun maydon ajratilgan hamda urug‘lar ivitilib, turli tarkibli preparatlar bilan ekish oldi urug‘larga ishlov berilib, ko‘chatlar tayyorlanib, so‘ngra dalada parvarishlangan.

Ko‘chatxonada sholining urug‘larining dala unuvchanligi variantlar bo‘yicha 55,4 % dan 58,3 % gachani tashkil etgan. Nazorat variantida dala unuvchanligi 55,4 % ni tashkil etib, Avangard Start (1,0 l/t), Edagum SM (400 ml/t) va Zerebra Agro (100 ml/t) preparatlar qo‘llanilganda 56,5 % dan 58,3 % ni tashkil etgan. Eng yuqori dala unuvchanligi Avangard Start (1,0 l/t) qo‘llanilganda 57,9-58,3 % bo‘lib, nazorat variantiga nisbatan 2,5-2,9 % ga yuqori bo‘lgan. Shuningdek, Edagum SM (400 ml/t) va Zerebra Agro (100 ml/t) preparatlar qo‘llanilgan variantlarda esa dala unuvchanligi Avangard Start (1,0 l/t) qo‘llanilgan variantlarga nisbatan biroz past, mos ravishda 57,0-57,4 va 56,3-56,8 % bo‘lgan bo‘lsada, lekin, nazorat variantga nisbatan 1,6-2,0 va 1,1-1,4 % ga yuqori bo‘lganligi qayd etilgan.

Dala tajribalasida asosiy ekin kuzgi bug‘doy don hosili yig‘ishtirib olingandan so‘ng, takroriy ekin sholi yetishtirish uchun yer tayyorlanib, so‘ngra

dala 5 sm qalinlikda sug'orilib, ko'chatxonadan tayyor bo'lgan ko'chatlar olib kelinib, 20x15x3 sxemada, gektariga 1 mln.dona hisobida ekilgan.

Olingan ma'lumotlariga ko'ra, ildizdan tashqari oziqlantirish o'tkazilmagan $N_{150}P_{105}K_{105}$ (FON)- nazorat 1-variantda sholi o'simligi ko'chat tutuvchanligi 91,4 % ni tashkil etgan. Ekish oldi sholi urug'lari Avangard Start (1,0 l/t), Edagum SM (400 ml/t), Zerebra Agro (100 ml/t) preparatlari bilan ishlov berilib ko'chatlar o'tqazilgan 2-13-variantlarda ko'chat tutuvchanligi 93,6 % dan 94,5 % gachani tashkil etib, preparatlar bilan ishlov berilmagan $N_{150}P_{105}K_{105}$ (FON)-nazorat 1-variantiga nisbatan 2,2 % dan 3,1 % gacha yuqori bo'lishi aniqlangan.

Shuningdek, tadqiqotlarda sholining "Iskandar" navini ko'chat usulida parvarishlashda Avangard Start, Edagum SM, Zerebra Agro preparatlarini sholini o'suv davrida turli rivojlanish fazalarida har xil me'yorlarda qo'llanilishi o'suv davri oxirida saqlanib qolgan o'simliklar miqdoriga sezilarli ravishda ta'sir etgan.

Masalan, $N_{150}P_{105}K_{105}$ (FON)- nazorat 1-variantda o'suv davri oxirida saqlanib qolgan o'simliklar 91,4% ni tashkil etgan. Faqatgina sholi urug'lari ekish oldi ishlov berilgan FON+Avangard Start 1,0 l/t (2-variant), FON+ Edagum SM 400 ml/t (6-variant), FON+Zerebra Agro 100 ml/t (10-variant) variantlarda o'suv davri oxirida saqlanib qolgan o'simliklar tegishlicha: 93,8; 94,2; 93,5 % ni tashkil etib, nazorat 1-variantga nisbatan 3,1; 2,5; 1,8 ga ko'p miqdorda o'simlik saqlanib qolganligi aniqlangan.

Sholini ekish oldi urug'lar ishlov berilib, tuplanish davrida bargdan oziqlantirish, ekish oldi urug'lar va naychalash davrida oziqlantirilgan variantlarga nisbatan o'suv davri oxirida saqlanib qolgan o'simliklar miqdorini ko'p bo'lishini ta'minlagan. Ekish oldi urug'+tuplanish davrida qo'llanilgan FON+Avangard Start 1,0 l/t+1,0 l/ga (3-variant), FON+Edagum SM 400 ml/t+400 ml/ga (7-variant), FON+Zerebra Agro 100 ml/t+100 ml/ga (11-variant)da o'suv davri oxirida saqlanib qolgan o'simliklar - 96,8; 96,3; 95,4 % ni tashkil etib, nazorat 1-variantga nisbatan 5,1; 4,6; 3,7 % ga, ekish oldi urug'+naychalash davrida qo'llanilgan FON +Avangard Start 1,0 l/t+2,0 l/ga (4-variant), FON+Edagum SM 400 ml/t+450 ml/ga (8-variant), FON+Zerebra Agro 100 ml/t+200 ml/ga (12-variant)ga nisbatan 0,9; 1,0; 1,1 % ga ko'p miqdorda o'simlik saqlanib qolganligi qayd etilgan.

Tajribada o'suv davri oxirida o'simlik saqlanib qolishi bo'yicha yuqori ko'rsatkichlar sholi ekish oldi urug'lari ishlov berilib, o'suv davrida 2 marta ketma-ket tuplanish va naychalash davrlarida oziqlantirish o'tkazilgan FON+ Avangard Start 1,0 l/t+1,0+2,0 l/ga (5-variant) va FON+Edagum SM 400 ml/t+400+450 ml/ga (9-variant)larda - 98,0 va 97,1 % ni tashkil etib, nazorat 1-variantga nisbatan 6,3 va 5,4 % ga ko'p o'simlik saqlanib qolishini ta'minlagan.

Tajriba o'tkazilgan 2021-2023 yillarda tajriba variantlari bo'yicha sholining "Iskandar" navining o'suv davri 87 kundan 95 kungachani tashkil etgan. Tajribada preparatlar qo'llanilmagan $N_{150}P_{105}K_{105}$ (FON) nazorat 1-variantda ko'chat ekish – tuplanish davri o'rtacha 22 kun, tuplanish – naychalash 21 kun, naychalash – ro'vaklash 12 kun, ro'vaklash gullash 5 kun, gullash – to'liq pishish davri 27 kunni, o'suv davri urug'idan ekilgan muddatda 112 kunni, dalaga ko'chatidan ekilgan kun bo'yicha 87 kunni tashkil etgan.

Olingan ma'lumotlarga ko'ra, ekish oldi urug'lar va o'suv davrida 1 marta tuplanish davrida Avangard Start 1,0 l/t+1,0 l/ga, Edagum SM 400 ml/t+400 ml/ga, Zerebra Agro 100 ml/t+100 ml/ga me'yorlarida bargdan oziqlantirish o'tkazilganda tuplanish davridan ro'vaklash davrigacha rivojlanish davrlariga o'tish uzayib borib, o'suv davri urug'idan 117, 118, 115 kunni, ko'chatidan 92, 93, 90 kunni tashkil etib, nazorat 1-variantga nisbatan 5, 6, 3 kunga, faqat ekish oldi urug'lar ishlov berilgan (FON+Avangard Start 1,0 l/t; FON+ Edagum SM 400 ml/t; FON+Zerebra Agro 100 ml/t) variantlarga nisbatan 3, 4, 3 kunga, o'suv davrida 1 marta naychalash davrida bargdan oziqlantirilgan (FON + Avangard Start 1,0 l/t+2,0 l/ga; FON+ Edagum SM 400 ml/t+450 ml/ga; FON+Zerebra Agro 100 ml/t+200 ml/ga) variantlarga nisbatan 1, 1, 1 kunga uzayganligi qayd etilgan.

Tajribada urug'lar ekish oldi ishlov berilib, o'suv davrida tuplanish va naychalash davrida 2 marta bargdan oziqlantirilgan (FON+Avangard Start 1,0 l/t+1,0+2,0 l/ga; FON+Edagum SM 400 ml/t+400+450 ml/ga; FON+Zerebra Agro 100 ml/t+100+200 ml/ga)da barcha rivojlanish davrlarida o'simliklarning o'sishi uchun qulay sharoit yaratilib, o'suv davri urug'idan 119, 120, 117 kun, ko'chatidan 94, 95, 92 kunni tashkil etgan. Bu nazorat variantga nisbatan 7, 8, 5 kunga, ekish oldi urug'lar ishlov berilib, tuplanish davrida 1 marta bargdan oziqlantirilgan (FON+Avangard Start 1,0 l/t+1,0 l/ga; FON+Edagum SM 400 ml/t+400 ml/ga; FON+Zerebra Agro 100 ml/t+100 ml/ga) variantlarga nisbatan 2, 2, 2 kunga, ekish oldi urug'lar, o'suv davrida 1 marta naychalash davridagi (FON+Avangard Start 1,0 l/t+2,0 l/ga; FON+Edagum SM 400 ml/t+450 ml/ga; FON+Zerebra Agro 100 ml/t+200 ml/ga) variantlarga nisbatan 3, 3, 3 kunga uzayganligi aniqlangan.

Dala tajribalarida o'simlik bo'yi balandligi va ro'vak uzunligi o'rtasidagi ko'rsatkichlar yo'nalishiga ko'ra to'g'ri, ifodalanishiga ko'ra to'g'ri chiziqli bog'liqlik (korreleyatsiya) mavjudligi aniqlanib, bog'liqlikning regressiya tenglamasi $y=a+bx$ ga bo'ysinib, determinasiya koeffitsiyenti $R^2=0,96$ ga, korrelyatsiya koeffitsiyenti esa $r=0,98$ ga teng bo'lib, ya'ni o'simliklar qanchalik baland bo'lsa, ularning ro'vagi ham shunchalik uzun bo'lishi statistik jihatdan isbotlangan.

Tajribada o'simlik bo'yi, $1m^2$ dagi umumiy va mahsuldor poyalar, 1 tup o'simlikda mahsuldor tuplanish bo'yicha eng past ko'rsatkichlar ildizdan tashqari oziqlantirish o'tkazilmagan nazorat variantida aniqlanib, o'simlik bo'yi 114,4 sm, $1m^2$ dagi umumiy poyalar 299,6 dona, mahsuldor poyalar 260,6 dona, 1 tup o'simlikda mahsuldor tuplanish 3,21 donani tashkil etgan.

O'rganilgan preparatlar orasida eng past ko'rsatkichlar Zerebra Agro preparati qo'llanilgan 10-11-12-13-variantlarda kuzatilib, tegishli o'simlik bo'yi 115,4-117,7-116,6-119,2 sm, $1m^2$ dagi umumiy poyalar soni 307,9-317,9-312,7-326,6 dona, mahsuldor poyalar 272,9-282,2-276,9-289,1 dona, 1 tup o'simlikda mahsuldor tuplanish 3,23-3,27-3,25-3,32 dona bo'lib, bu ko'rsatkichlar nazorat 1-variantiga nisbatan tegishli 1,0-3,3-2,2-4,8 sm, 8,3-18,3-13,1-27,0 dona, 12,3-21,6-16,3-28,5 donaga yuqori va ko'p bo'lgan bo'lsada, Avangard Start va Edagum SM qo'llanilgan variantlarga nisbatan tegishli 2,1-3,9-2,6-4,5 va 0,7-

2,4-0,9-2,8 sm, 5,7-10,6-6,4-8,4 va 3,3-7,2-2,8-3,8 dona, 7,1-11,1-10,3-12,7 va 5,3-7,6-7,1-7,7 donaga past va kam bo'lganligi hisobga olingan.

Sholini rivojlanish davrlari davomiyligida kuzatilgani kabi, o'sishi, rivojlanishida ham qo'llanilgan preparatlarning qo'llash muddatlari ya'ni qaysi rivojlanish davrida qo'llanilishiga bog'liq holda o'zgarib borganligi kuzatilgan. Ildizdan tashqari oziqlantirish bo'yicha variantlar orasida eng past ko'rsatkichlar faqat ekish oldi urug'larga ishlov berilgan FON+Avangard Start 1,0 l/t; FON+Edagum SM 400 ml/t; FON+Zerebra Agro 100 ml/t variantlarda tegishlicha o'simlik bo'yi 117,5-116,1-115,4 sm, 1m²dagi umumiy poyalar 313,6-311,2-307,9 dona, mahsuldor poyalar 280,0-278,2-272,9 dona, 1 tup o'simlikda mahsuldor tuplanish 3,26-3,25-3,23 donani tashkil etib, eng yuqori ko'rsatkichlar preparatlar bilan urug'larga ishlov berilib, o'suv davrida tuplanish+naychalash davrida 2 marta bargdan oziqlantirilgan FON+Avangard Start 1,0 l/t+1,0+2,0 l/ga; FON+Edagum SM 400 ml/t+400+450 ml/ga; FON+Zerebra Agro 100 ml/t+100+200 ml/ga variantlarda tegishlicha 123,7-122,0-119,2 sm, 335,0-330,4-326,6 dona, 301,8-296,8-289,1 dona, 3,38-3,37-3,32 donani tashkil etgan.

Ildizdan tashqari oziqlantirish o'tkazilmagan N₁₅₀P₁₀₅K₁₀₅ (FON) nazorat variantida 1 ta o'simlikdagi barg yuzasi 183,5 sm², bu ildizdan tashqari oziqlantirish o'tkazilgan variantlarda 185,5-235,5 sm² bo'lib, o'rganilgan preparatlarda o'simlik barg yuzasi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichlar Avangard Start qo'llanilgan 2-3-4-5-variantlarda 188,1-226,3-211,3-235,5 sm², nazorat 1-variantga nisbatan 4,6-42,8-27,8-52,0 sm² ga katta bo'lgan. Bu Edagum SM qo'llanilgan 6-7-8-9-variantlarda 187,1-224,5-206,2-233,7 sm² tashkil etgan.


Tajribada Zerebra Agro preparati qo'llanilgan 10-11-12-13-variantlarda 1 ta o'simlikdagi barg yuzasi 185,5-205,1-187,1-211,9 sm² ni tashkil etib, nazorat 1-variantga nisbatan 2,0-21,6-3,6-28,4 sm² katta bo'lgan bo'lsada, lekin, Avangard Start va Edagum SM preparatlari qo'llanilgan variantlarga nisbatan tegishlicha 2,6-21,2-24,2-23,6 va 1,6-19,4-19,1-21,8 sm² kichik bo'lganligi aniqlangan.

Ildizdan tashqari oziqlantirishda urug'larga ishlov berib, o'suv davrida 1 marta tuplanish davrida bargdan oziqlantirish o'simliklarda barglarning shakllanishiga ijobiy ta'sir etib, bu Avangard Start 1,0 l/t+1,0 l/ga, Edagum SM 400 ml/t+400 ml/ga, Zerebra Agro 100 ml/t+100 ml/ga qo'llanilgan variantlarda 1 ta o'simlikdagi barg yuzasi 226,3-224,5-205,1 sm² bo'lib, nazorat variantga nisbatan 42,8-41,0-21,6 sm² ga, ekish oldi urug'lar ishlanib, o'suv davrida 1 marta naychalash davrida bargdan oziqlantirilgan Avangard Start 1,0 l/t+2,0 l/ga, Edagum SM 400 ml/t+450 ml/ga, Zerebra Agro 100 ml/t+200 ml/ga variantlarga nisbatan 15,0-18,3-18,0 sm² ga katta bo'lgan. Demak, sholini bargdan oziqlantirishni o'suv davrida 1 marta tuplanish davrida o'tkazish, naychalash davrida qo'llashga nisbatan yaxshi natija berishi tajribalarda aniqlangan.

Shuni alohida qayd etish lozimki, tajribada sholi o'simligida barg yuzasining shakllanishi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichlar o'suv davrida 2 marta tuplanish+naychalash davrida bargdan oziqlantirilgan FON+Avangard Start 1,0 l/t+1,0+2,0 l/ga va FON+Edagum SM 400 ml/t+400+450 ml/ga variantlarda tegishlicha 1 ta o'simlikdagi barg yuzasi 235,5 va 233,7 sm², bu ushbu tartibda

oziqlantirilgan FON+Zerebra Agro 100 ml/t+100+200 ml/ga variantlarga nisbatan 23,6-21,8 sm²ga yoki nazoratga nisbatan 52,0-50,2 sm² ga katta bo‘lgan.

Sholi ekinining don hosildorligi va quruq modda miqdori orasidagi bog‘liqlik to‘g‘ri chiziqli $y = ax+b$ regressiya tenglamasiga bo‘ysinib, korreleyatsiya koeffitsiyenti 0,97 va determinasiya koeffitsiyenti esa 0,95 ga teng bo‘lib, ular orasidagi bog‘liqlik zich bo‘lganligi aniqlandi (1- rasmga qarang).



1-rasm. Don hosili va quruq modda miqdori (pishish fazasi) orasidagi bog‘liqlik, 2021-2023-yy.

Tajribada sholini rivojlanish davrlari bo‘yicha to‘plangan quruq moddaning eng past ko‘rsatkichi nazorat- $N_{150}P_{105}K_{105}$ (FON) 1-variantda aniqlanib, tuplanish, naychalash, ro‘vaklash, pishish davrlarida 1,61; 3,43; 6,24; 9,22 g. bo‘lgan.

Mineral o‘g‘itlar $N_{150}P_{105}K_{105}$ kg/ga o‘g‘itlash fonida urug‘lar + o‘suv davrida tuplanish+naychalash davrida 2 marta bargdan oziqlantirilgan Avangard Start 1,0 l/t+1,0+2,0 l/ga va Edagum SM 400 ml/t+400+450 ml/ga qo‘llanilgan variantlarda eng ko‘p miqdorda o‘simliklarda quruq modda to‘planib, tuplanish davrida 2,83-2,71 g., naychalashda 5,81-5,62 g, ro‘vaklashda 9,19-8,85 g, pishish davrida 12,46-12,32 g. ni tashkil etib, nazorat variantga nisbatan 1,22-1,10 g, 2,38-2,19 g, 2,95-2,61 g, 3,24-3,10 g. yuqori bo‘lgan. Barcha variantlarda eng ko‘p miqdorda o‘simlikda quruq modda to‘plashi pishish davrida kuzatilgan.

Dala tajribalarida nazorat $N_{150}P_{105}K_{105}$ (FON) 1-variantida sholi o‘simligida hosil strukturasi shakllanishi past bo‘lib, tegishlicha: ro‘vak uzunligi 19,6 sm, ro‘vakdagi don soni 105,1 dona, ro‘vakdagi don og‘irligi 3,28 g, 1000 dona don og‘irligi esa 31,3 g.ni tashkil etgan. Tajribada sholi hosil strukturasi shakllanishi preparatlarni sholini qaysi rivojlanish davrlarida qo‘llanishiga qarab yuqori yoki past bo‘lganligi kuzatilgan. Ekish oldi urug‘larga ishlov berib, o‘suv davrida 1 marta tuplanish davrida bargdan oziqlantirilgan FON+Avangard Start 1,0 l/t+1,0 l/ga; FON+Edagum SM 400 ml/t+400 ml/ga; FON+Zerebra Agro 100

ml/t+100 ml/ga variantlarda ro‘vak uzunligi tegishli 20,9-20,7-20,4 sm, ro‘vakdagi don soni 113,6-111,7-109,8 dona, ro‘vakdagi don og‘irligi 3,60-3,52-3,45 g, 1000 dona don og‘irligi 31,7-31,6-31,5 g.ni tashkil etib, urug‘larga ishlov berib, o‘suv davrida 1 marta naychalash davrida bargdan oziqlantirilgan FON+Avangard Start 1,0 l/t+2,0 l/ga; FON+Edagum SM 400 ml/t+450 ml/ga; FON+Zerebra Agro 100 ml/t+200 ml/ga variantlarga nisbatan tegishli 0,4-0,2-0,4 sm, 3,2-1,3-2,1 dona, 0,13-0,05-0,06 g, 0,2-0,1 g.ga uzun va ko‘p bo‘lgan.

Demak, sholini ildizdan tashqari oziqlantirishda tuplanish davrida bargdan oziqlantirilmay, 1 marta naychalash davrida bargdan oziqlantirishni yuqori me‘yorda (Avangard Start 2,0 l/ga, Edagum SM 450 ml/ga, Zerebra Agro 200 ml/ga) qo‘llanilishidan qat’iy nazar, tuplanish davrida qo‘llanilganga nisbatan hosil elementlarining shakllanishi kam bo‘lishi muqarrarligi tajribalarda aniqlangan. Bu esa, sholi o‘simligini tuplanish davrida oziqa moddalariga talabi yuqori bo‘lishini, bu davrda oziqa moddalarni yetarli darajada ta‘minlanmasligi don hosilini belgilovchi hosil elementlarini shakllanishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishini isbotlagan.

